
Oilalarni saqlab qolishda sudlarning roli

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 76-moddasiga ko'ra, Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi. Oila mustahkam bo'lsa, jamiyat ham osoyishta bo'ladi. Oilalarda parokandalik bo'lsa, jamiyatning ham tinchi yo'qoladi va tanazzulga yuz tutadi. Baxtli oilalar tufayli baxtli jamiyat shakllanadi. Chunki o'zaro mehri bo'lgan ota-onalarning farzandlari ham bir-biriga mehribon bo'ladi. Oilada yuksak ma'naviy muhitni tashkil etish juda muhim. Bunda oila a'zolarining, ayniqsa, er-xotinning o'zaro murosa-madoraga borishi, g'azabi kelganda uni yengishi va shirin so'zli bo'lishi, shu bilan birga, oilaviy sirlarni ko'chaga olib chiqmasligi singari bir qator omillar juda katta ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda jamiyatimizda ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar soni ko'payib borayotgani achinarli holat. Amaldagi qonunchiligimizga ko'ra, nikohdan ajratishga oid ishlar fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlarida hamda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli oilalarni saqlab qolishda sudlarning alohida roli bor. Chunki nikohdan ajrashish uchun sudga tashrif buyurgan fuqarolarni oilasini saqlab qolish va tiklash choralarni ko'rishda sudlar bir qator ishlarni amalga oshiradi. Jumladan nikohdan ajratish haqidagi da'vo arizalar rad qilingan taqdirda taraflarning oilalarini tiklash choralarni ko'rish bo'yicha ularning yashash manzillaridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida tashkil etilgan "Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash" komissiyalariga xususiy ajrimlar yuborish yo'lga qo'yilgan. Shu bilan birga, oila qonunchiligiga ko'ra, sud er-xotininga yarashish uchun muhlat tayinlab, ishning ko'rilishini keyinga qoldirgan taqdirda, er-xotinning birga yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini, agar ular birga yashamayotgan bo'lsa, har birining yashash joyidagi fuqarolar yig'inining yarashtirish komissiyasini er-xotinni yarashtirish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish uchun uch kundan kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi kerakligi belgilangan. Bundan tashqari tuman va shaharlardagi Oila va xotin-qizlar bo'limlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilib yarashish uchun muhlat tayinlagan ishlar yuzasidan taraflarning oilalarni saqlab qolish choralari ko'rish va bu bo'yicha o'z xulosalarini taqdim qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Oilalarni saqlab qolish orqali nafaqat ikki insonning taqdiri balki oiladagi farzandlarning taqdiri ham ularning o'sib ulg'ayishi, tarbiya va bilim olishi kelajakda komil inson bo'lib yetishishiga erishiladi. Islom dini ta'limotiga ko'ra, oila qurishga targ'ib etish bilan birga, uni yaxshilik bilan tutishga buyurilgan. Agar er-xotin o'zaro kelisha olmagan taqdirlarida isloh qilish uchun har ikki tomondan hakamlar jalb etish lozim bo'ladi deb belgilangan. Xulosa qilib aytganda nafaqat sudlarimiz balki barchamiz oilalarni saqlab qolish, yetim bolalarning ko'payishini oldini olish shu orqali jamiyatimiz va davlatimiz yuksalishi yo'lida ma'suliyatli hisoblanamiz.

M. Ibroximova,
Fuqarolik ishlari bo'yicha
Rishton tumanlararo sudi sudyasi

2024-09-23 10:15:41